

# Ob'ektning joriy tamirlash va foydalanishga topshirish haqida PUDRAT SHARTNOMASI

17 10 2022 yil

№

Yangi nishon shahri.

**Nishon tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan (Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan) Nizom asosida ish ko'ruvchi korxonada direktori **Sh. Tursunov** bir tomondan va **Chp Pardozechi muxandis MCHJ** nomidan (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan) Nizom asosida ish ko'ruvchi korxonada direktori **A. Erkayev** ikkinchi tomondan **Nishon tumani Jalajin MFY Farobiy kuchasini joriy ta'mirlash** (smeta xujjatlarida kuzda tutilgan ishlar xajmi miqdorida) doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

## I. TARIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ta'mirlash ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha (ish olib borish talab etadigan hollarda) "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchiga" berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar - "Pudratchi" tomonidan qurilish-ta'mirlash maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

## II. SHARTNOMA MAVZUSI.

1. "Pudratchi" **Chp Pardozechi muxandis MCHJ** mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Nishon tumani Jalajin MFY Farobiy kuchasini joriy ta'mirlash** (smeta xujjatlarida kuzda tutilgan ishlar xajmi miqdorida) loyiha-smeta xujjatlari asosida joriy ta'mirlash bo'yicha ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi" ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Ob'ektning" umumiy qiymati, loyiha-smeta xujjatlarida hisoblab chiqilgan, davlat (yoki xususiy) ekspertizasi tomonidan belgilab berilgan (tanlov va tender savdolari natijasida aniqlangan) "Manzilli dastur" asosida tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda: **139 000 000 (Bir yuz uttiz tuqqiz millioib)** summi tashkil etadi.

2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- qurilish-ta'mirlash qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

- ishlar hajmi "Buyurtmachi" tomonidan o'zgartirilganda;

- ob'ektning qurilish-ta'mirlash ishlari "Buyurtmachi" tashshabusi (talabi) bilan bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

3. Mazkur shartnomaga ko'ra qurilish-ta'mirlash muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar "Buyurtmachi" bilan "Pudratchi" o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim (kelishuv) bilan rasmiylashtiriladi.

#### **IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.**

1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlar bajarish uchun quyidagilarga amal qilishi shart:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga 1- ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish, hamda ishni "Buyurtmachi" ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirishi shart;

- ta'mirlash ishlarini boshlashdan oldik, yo'lning ta'mirlash qismida harakat xavfsizligini ta'minlash buyicha yo'l harakati xavfsizligi (DAN) hududiy bo'limi bilan kelishgan holda, harakat xavfsizligi buyicha chora-tadbirlar ishlab-chiqishi shart.

- ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashi shart;

- zarur hollarda qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurishi lozim;

- pudratchi yordamchi pudrati bilan shartnomalari tuzish davomida, buyurtmachini, tuzilayotgan shartnomalar mavzusi, yordamchi pudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish shart;

- qurilish-ta'mirlash maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatishi shart;

- qurilishni o'z hisobidan tavakkalchiliklardan sug'urta qilishi lozim;

- mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda, qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatishi lozim;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlashi shart;

2. "Pudratchi", ob'ektda ishlarni bajarilishi ustidan o'rnatilgan doimiy mualliflik va texnik nazorat xodimlari ishlarini tashkillashtirishi (avtotransport, zarur asbob-uskuna bilan ta'minlashi) shart.

3. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari yoki yordamchi pudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektni foydalanuvchiga tayyor holda topshirilishi uchun "Buyurtmachi" oldida to'liq mulkiy javobgar hisoblanadi.

4. "Pudratchi", ob'ektni tayyor holda ishchi komissiya dalolatnomasini rasmiylashtirish orqali balansda saqlovchiga va uzil-kesil hisob-kitob qilish uchun dalolatnoma nusxasini (asl nusxa holda) "Buyurtmachiga" topshirishga ma'suldir.

5. "Pudratchi" Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

#### **V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.**

1. "Buyurtmachi" Mazkur shartnoma shartlarini bajarilishi uchun quyidagilarga amal qilishi shart:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda (ishlarni bajarish shuni talab etgan hollarda) dalolatnoma bo'yicha "Pudratchi" ga topshirishi lozim;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy mualliflik va texnik nazoratni o'rnatishi lozim;

- mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilishi lozim.

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida "Pudratchi" ga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etishi lozim;

- "Pudratchi" dan tugallangan ishlarni belgilangan muddatlarda qabul qilib olishni ta'minlashi shart;

2. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlari tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilish buyicha ishchi komissiya tarkibini tasdiqlaydi va bu haqda "Pudratchi" ga rasman ma'lum qiladi.

3. "Pudratchi" ning barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqishi va qabul qilingan qaror to'g'risida xabar berishi lozim;

4. "Buyurtmachi" mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

1. Shartnomada pudrat ishlarini bajarish muddatlari, shartnomaning 1-ilovasi "Ishlarni bajarish jadvali" asosida belgilandi.

## VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR.

1. Mazkur shartnoma buyicha moliyalashtirish "Respublika yo'l jamg'armasi" yoki "Viloyat moliya boshqarmasi" tomonidan kelishilgan "Ob'ektlarning oylik smeta xarajatlari" asosida tuzilgan, ushbu shartnomaning 2-ilovasi "Moliyalashtirish jadvali" asosida amalga oshiriladi.
2. "2017-2018 yillarda mintaqaviy yo'llarni rivojlantirish dasturini amalga oshirishni monitoring qilish va muvofiqlantirish buyicha Respublika ishchi gruxi yig'ilish" ining 2017 yil 1 noyabrdagi №236- sonli bayoni qarori asosida "Buyurtmachi" "Moliyalashtirish jadvali" ga (2-ilova) ko'ra shartnoma tuzilgan sanadan besh bank kunida "Pudratchi" ga shartnoma bo'yicha ishlarining joriy narxlardagi umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida avans mablag'i 15.801.080 (o'n besh million sakkiz yuz bir ming sakson) so'mni to'lab beradi.
3. Joriy moliyalashtirish, bajarilgan ishlar sifati tekshirilib tulovga qabul qilingandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 95 foizi doirasida amalga oshiriladi.
4. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 5 foizi uchun "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob, qurilish -ta'mirlash ishlari to'liq tugallangandan keyin va ob'ekt ishchi komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinib balansda saqlovchiga topshirilgandan (ishchi komissiya dalolatnomasi taqdim etilgandan) sung amalga oshiriladi.
5. "Pudratchi" ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar, mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Balansda saqlovchiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi oqibatida yetgan zarar "Pudratchi" ning zimmasida bo'ladi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH.

1. "Buyurtmachi" qurilish-ta'mirlash maydonida o'z vakilini - texnik kuzatuvchini tayinlaydi, u "Buyurtmachi" ning nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek "Pudratchi" tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.
2. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishi va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.
3. "Pudratchi" texnik kuzatuvchini ishlashi uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik kuzatuvchi, qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha "Pudratchi" tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlarda muntazam ishtirok etishga haqli.
4. "Pudratchi" ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
5. "Pudratchi" ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.
6. Qurilish-ta'mirlash maydonida umumiy tartibni ta'minlash "Pudratchi" ning vazifasi hisoblanadi.
7. "Buyurtmachi" (qurilish-ta'mirlash ishlari shuni talab qilgan hollarda) qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektning tayanch nuqtalarga bog'lash (privyazka) uchun "Pudratchi" ga geodezik tyanch nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi. "Pudratchi" geodezik nuqtalarga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.
8. Agar ishlarni bajarish jarayonida geodezik o'lchov ishlarida xatolar aniqlansa, "Pudratchi" "Buyurtmachi" bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.
9. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida mavjud kommunikatsiyalarni saqlash uchun "Pudratchi" ma'sul hisoblanadi.
10. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

11. Alohida mas'uliyatli konstruktsiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin "Pudratchi" "Buyurtmachi" ni, nazorat inspeksiya tegishli manfaatdor korxonalarni yozma ravishda xabardor qiladi. Konstruktsiyalar va ishlar tayyorligi, sinov natijalari tegishli xujjatlar orqali rasmiylashtiriladi.

12. Agar berkitiladigan ishlar "Buyurtmachi" ning tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda "Pudratchi" "Buyurtmachi" ning ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

13. Agar "Buyurtmachi" "Pudratchi" va (yoki) uning yordamchi pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda "Pudratchi" o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

14. "Pudratchi" qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni ozoda saqlanishini ta'minlaydi.

15. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha "Pudratchi" ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar aks ettiriladi.

16. Agar "Buyurtmachi" ishlarning borishi va sifatidan yoki "Pudratchi" ning qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi. "Pudratchi" daftarda "Buyurtmachi" tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

#### **IX. KAFOLATLAR**

1. "Pudratchi" barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini, loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini, o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatliyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini, ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida (ishchi komissiya orqali foydalanuvchiga topshirish muddatida) aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni kafolatlaydi.

2. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar "Pudratchi" tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari "Pudratchi" va "Buyurtmachi" ning ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

3. Agar "Pudratchi" nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish Vazirlar Maxkamasi huzuridagi yo'l qurilish-ta'mirlash nazorati inspeksiya tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha hakamlilik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

#### **X. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.**

1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

2. Mazkur shartnomaning tegishli ilovalarida ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi", "Pudratchi" ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun (xujalik sudi qarori asosida) "Buyurtmachi" "Pudratchi" ga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki

sh tortgan summaning har bir kuni uchun 0,1 foizi miqdorida jarima to'laydi, bunda jarima summasi asossiz tasdiqlanmagan bajarilgan ishlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

4. "Pudratchi" ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi" ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlarni joriy qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

5. "Buyurtmachi" tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagan taqdirda "Pudratchi" "Buyurtmachi" ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

6. Penya to'lash "Pudratchi" ni ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

7. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda "Buyurtmachi" Vazirlar Maxkamasi huzuridagi yo'l qurilish-ta'mirlash nazorati inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek "Pudratchi" dan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 50 foizigacha miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

#### **XI. YENGI BO'LMAYDIGAN KUCHLAR (FORS-MAJOR) HOLATLARI**

1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

2. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

3. Agar tomonlar shartnomani bajarish muddatlari buyicha kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### **XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.**

1. "Buyurtmachi" shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilish-ta'mirlash ishlarining boshlanishi "Buyurtmachi" ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra "Pudratchi" tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

2. Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari, qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarining sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

3. "Buyurtmachi" tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### **XIII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalar, tomonlarning o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Tomonlar nizolarni o'zaro kelishuv orqali hal etolmasalar, tomonlar o'rtasidagi nizolar Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi yoki sudlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

#### **XIV. ALOHIDA SHARTLAR.**

1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

2. "Pudratchi" qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini "Buyurtmachi" ning yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlarini normalari qo'llaniladi.

#### **XV. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI.**

1. Mazkur shartnomaning amal qilishi qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlanguncha 2031 dekabrgacha qilib belgilandi.
2. Qurilish-ta'mirlash ishlari biror tomon aybi bilan yakunlanmay qolganda, ishlar to'xtatilmay xolda qoldiq ishlar qo'shimcha kelishuv orqali keyingi yilga o'tkaziladi. Bu aybdor tomon yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.
3. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

#### XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YurIDIK MANZILLARI:

Nishon tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi  
Manzil: Yangi nishon shahri O'zbekiston ko'chasi  
Ҳисобрақами 100022860102357045204110001

Банк коди (МФО) 00014  
STIR (ИНН) 206816754  
x/p 23402000300100001010

Марказий банк Тошкент Ш Б/Б ХККМ

ИНН:201122919

МФО: 00014

Бюджетдан ташқари фонднинг

x/p

(ИНН) 206816754

  
Rahbar

Sh.Tursunov

**Chp Pardozchi muxandis**


Manzil: Chiroqchi tumani

Ҳисобрақами 20208000204177068001


Банк коди (МФО) 01037

STIR (ИНН) 203954087

Qishloq qurilish bank ATB



Rahbar

  
A.Erkayev

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 158174 на приобретение Нишон тумани Жалажин мфй 05067 ТҚК Фаробий кучасини жорий тамирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 12.10.2022

Время рассмотрения 12.10.2022 21:44

Закупочная комиссия Нишон туман хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	TURSUNOV SHOHLI XAMROYEVICH	раҳбар	Нишон хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Секретарь комиссии</b>	O'RINOV ANVAR TURAQULOVICH	Ишчи	Нишон тумани Хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	YANGIBOYEV IBROGIM SHERMAMATOVICH	Хужалик ишлари мудири	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	AMANOV BOBIR ANVAROVICH	бош муҳандис	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	XAKKULOV ERKIN ARAQOVICH	учаска бошлиги	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	YULDASHOV BAXTYOR SHARIFOVICH	техназор	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 12.10.2022 года № лота 158174.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф. технико-квалификационной части: 85.00 / Весовой коэф. ценовой части: 15.00)

Мин. балл: 75

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог</b>
Подробное описание	Нишон тумани Жалажин мфй 05067 ТҚК Фаробий кучасини жорий тамирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	143 150 266.00
Стартовая сумма	143 150 266.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Курилиш объекти жойига урганганлиги ва курилиш ишларини уз вактига бажарилиши тугрисида кафолат хати курсатилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш объекти жойига урганганлиги ва курилиш ишларини уз вактига бажарилиши тугрисида кафолат хати курсатилиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП PARDOZCHI-MUHANDIS	20	Курилиш объекти жойига урганганлиги ва курилиш ишларини уз вактига бажарилиши тугрисида кафолат хати бизда мавжуд	20	Экспертная		
KOINOT-YUPITER MCHJ	20	140500000	20	Экспертная		
ELYOR PROEKTSTROY XK	20	Нусхаси илова қилинди	20	Экспертная		
NASAF BUYUK DIYOR MCHJ	20	Файл илова қилинди.	20	Экспертная		

Критерий №2 Курилиш ташкилоти иш фаолияти тугрисида маълумот (шартномалар ва хисоб фактураси) курсатилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ташкилоти иш фаолияти тугрисида маълумот (шартномалар ва хисоб фактураси) курсатилиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП PARDOZCHI-MUHANDIS	20	Курилиш ташкилоти иш фаолияти тугрисида маълумот (шартномалар ва хисоб фактураси) бизда мавжуд	20	Экспертная		
KOINOT-YUPITER MCHJ	20	140500000	10	Экспертная		
ELYOR PROEKTSTROY XK	20	Нусхаси илова қилинди	10	Экспертная		
NASAF BUYUK DIYOR MCHJ	20	Файл илова қилинди.	15	Экспертная		

Критерий №3 Курилиш ташкилоти томонидан банк давлат солиқ инспекцияси ва бошка ташкилотлардан карздорлиги йуклиги тугрисида маълумотнома ва моливий натижалари баланс курсатилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ташкилоти томонидан банк давлат солиқ инспекцияси ва бошка ташкилотлардан карздорлиги йуклиги тугрисида маълумотнома ва моливий натижалари баланс курсатилиши лозим

Обязательность: Критично



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП PARDOZCHI-MUHANDIS	20	Курилиш ташкилоти томонидан банк давлат солик инспекцияси ва бошка ташкилотлардан карздорлиги йуклиги тугрисида маълумотнома ва моливий натижалари баланс бизда мавжуд	20	Экспертная		
KOINOT-YUPITER MCHJ	20	140500000	20	Экспертная		
ELYOR PROEKTSTROY XK	20	Нухаси илова қилинди	20	Экспертная		
NASAF BUYUK DIYOR MCHJ	20	Файл илова қилинди.	20	Экспертная		

Критерий №4 Курилиш ташкилотининг техника механизмлари ва иш ходимлари тугрисида маълумотнома курсатиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ташкилотининг техника механизмлари ва иш ходимлари тугрисида маълумотнома курсатиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП PARDOZCHI-MUHANDIS	20	Курилиш ташкилотининг техника механизмлари ва иш ходимлари тугрисида маълумотнома бизда мавжуд	20	Экспертная		
KOINOT-YUPITER MCHJ	20	140500000	20	Экспертная		
ELYOR PROEKTSTROY XK	20	Нухаси илова қилинди	15	Экспертная		
NASAF BUYUK DIYOR MCHJ	20	Файл илова қилинди.	20	Экспертная		

Критерий №5 Курилиш ташкилоти Рейтинг салохияти статистика маълумотлари ташкилот низоми ИНН рахбар паспорт копия ва рахбар ИНН курсатилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ташкилоти Рейтинг салохияти статистика маълумотлари ташкилот низоми ИНН рахбар паспорт копия ва рахбар ИНН курсатилиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП	20	Курилиш ташкилоти	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
PARDOZCHI-MUHANDIS		Рейтинг салохияти статистика маълумотлари ташкилот низоми ИНН рахбар паспорт копия ва рахбар ИНН бизда мавжуд				
KOINOT-YUPITER MCHJ	20	140500000	20	Экспертная		
ELYOR PROEKTSTROY XK	20	Нусхаси илова қилинди	20	Экспертная		
NASAF BUYUK DIYOR MЧЖ	20	Файл илова қилинди.	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
NASAF BUYUK DIYOR MЧЖ	143 150 266.00	140 287 260.00 UZS	140 287 260.00	00.00	140 287 260.00	10.10.2022 15:22:32	14.86236
ELYOR PROEKTSTROY XK	143 150 266.00	142 560 266.00 UZS	142 560 266.00	00.00	142 560 266.00	10.10.2022 14:25:01	14.62539
KOINOT-YUPITER MCHJ	143 150 266.00	140 500 000.00 UZS	140 500 000.00	00.00	140 500 000.00	10.10.2022 13:07:12	14.83986
ЧП PARDOZCHI-MUHANDIS	143 150 266.00	139 000 000.00 UZS	139 000 000.00	00.00	139 000 000.00	10.10.2022 09:53:26	15

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
NASAF BUYUK DIYOR MЧЖ	76.5	14.86236	91.36236
ELYOR PROEKTSTROY XK	72.25	14.62539	86.87539
KOINOT-YUPITER MCHJ	76.5	14.83986	91.33986
ЧП PARDOZCHI-MUHANDIS	85	15	100

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 158174 от 12.10.2022 года на приобретение Нишон тумани Жалажин мфй 05067 TQK Фаробий кучасини жорий тамирлаш определила победителем:

ЧП PARDOZCHI-MUHANDIS  
203954087

и резервный исполнитель: NASAF BUYUK DIYOR МЧЖ (305439445)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	TURSUNOV SHOHLI XAMROYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	YANGIBOYEV IBROGIM SHERMAMATOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	AMANOV BOBIR ANVAROVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XAKKULOV ERKIN ARALOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	YULDASHOV BAXTYOR SHARIFOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

«ТАСДИКЛАЙМАН»

Нишон тумани ҳокимили ободонлаштириш  
бошқармаси бошлиги

Ш.Турсунов

2022 йил



**Нишон тумани Ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармасининг маъмурий биносига  
утказилган йигилиш.**

**Б А Ё Н И №05**

«17» 10 2022 йил

Нишон тумани

Йигилиш раиси:

Бошлик:

Ш.Турсунов

Йигилишда катнашдилар:

А.Уринов

**КУН ТАРТИБИ:**

Онлайн электрон биржа савдосига куйилган Нишон тумани Жалажин МФЙ Фаробий кучасини жорий таъмирлаш буйча, пудратчи ташкилотларнинг танловда иштирок этишларининг баҳолаш мезонлари хақида

Ш.Турсунов, Б.Амонов, Э.Хаккулов, А.Уринов, И.Янгибоев, Б.Йулдошев

**ЭШИТИЛДИ:**

Йигилишни бошқарма бошлиги Ш.Турсунов бошқариб бориб, туманимизда олиб борилаётган кенг камровли ободонлаштириш ва бунёткорлик ишларини давомийлигини таъминлаш мақсадида Нишон тумани Жалажин МФЙ Фаробий кучасини жорий таъмирлаш буйча, 2021 йил 22-апрелдаги 684-сонли Ўзбекистон Республикаси давлат харидлари тугрисидаги қонунинг 56-бандига асосан харид қилинадиган шартномани бажариш бўйича энг яхши шартлар танлов иштирокчиларининг таклифларини баҳолаш бўйича шартнома шартларини бажариш бўйича энг яхши шартларни таклиф қилган пудратчи иштирокчини танлаб олишни айтиб утилди.

Давлат хариди тугрисидаги ахборот давлат буюртмачиси томонидан махсус ахборот порталига танлов ўтказилиши тугрисидаги эълонни ва танлов ҳужжатларини жойлаштириш орқали чекланмаган доирадаги шахсларга маълум қилинади эълон қилинган мезонлар асосида харид комиссияси томонидан аниқланади таккослаб курилади танлов талаблари буйча бош пудратчини аниқлашда талабгорлар томонидан тагдим этилган ҳужжатларни тижорат таклифларини куриб чиқишда ҳамда энг арзон, сифатли таминоччини аниқлаб Нишон тумани Жалажин МФЙ Фаробий кучасини жорий таъмирлаш, ишларини 139 000 000 сумлик бюджет маблағлари доирасида шартнома тузиш лозимлигини таъкидлади.

Шундан сунг сузга Б.Йулдошев сузга чикиб танловда иштирок этган пудратчи ташкилотларни баҳолаш мезонларини эълон қилди.

Танловда “Chp Pardozchi muhandis” МСНЖ 98,76 балл туплаганлиги аниқланди.

Танловда катнашган курувчи ташкилотлар томонидан шартнома тузиш учун якуний баённома шакланиб 2 икки кун муддат ичида жамоат муҳокамасида турганлигини ва ушбу оралик мобайнида пудратчи ташкилотлар томонидан мурожатлар қилинмаганлиги аниқланди., шу мунсибати билан “Azia brick plant” МСНЖ 100 балл билан голиб деб топилганлиги тугрисида айтиб утилди.

Комиссия аъзолари талабгорлар томонидан тагдим қилинган танлов ҳужжатларини атрофлича урганиб чикиб, талабгор ташкилотлар ичида тагдим қилинган барча ҳужжатлар комиссия аъзолари томонидан урганилди.

Юкорида билдирилган фикр мулохазалардан келиб чикиб йигилиш комиссия аъзолари кенгаши

## ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Онлайн электрон биржа савдосига куйилган Нишон тумани Жалажин МФЙ Фаробий кучасини жорий таъмирлаш буйча, Пудратчи ташкилотларининг танловда иштирок этишларини баҳолаш маълумот ва ижро учун қабул қилинсин.
2. Нишон тумани Жалажин МФЙ Фаробий кучасини жорий таъмирлаш буйча, танловга кирган пудратчи ташкилотлар уртасида утказилган танловда “Chp Pardozchi muhandis” МСНЖ 100 балл туплаганлиги сабабли голиб деб топилсин
3. Голиб деб топилган “Chp Pardozchi muhandis” МСНЖ Нишон тумани Жалажин МФЙ Фаробий кучасини жорий таъмирлаш буйча, 139 000 000 сумлик шартнома тузиш бош ҳисобчи Б.Йулдошев зиммасига топширилсин..
4. Ушбу қарорни ижросини таъминлашни назорат қилишни ишчи гуруҳ зиммасига юклатилсин.

Баёнлаштирувчи



А.Уринов

**YURTDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HIJJATLARIGA MUVOFIQLICI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**


NH0574721801

1. Loyihanirm turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **PUDRAT SHARTNOIMASI**
3. Loyiha \_\_\_\_\_ ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

"OBODONLASHTIRISH" KORXONASI tomonidan 17.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Nishon tuman yuridik markazi  
markaz rahbari:



**B.SH.MAXMATKULOV**

17.10.2022

ТАСДИҚЛАЙМАН"

Нишон тумани хокими  
М.Хайитмуратов  
2022-йил

Нишон тумани хокими  
Х.Иулдошев  
2022-йил

Нишон тумани бўйича 2022-йилда маҳаллий хокимлик балансидаги туман маркази ичун автомобил йўлларини жорий таъмирлаш бўйича дастлабки

МАНЗИЛИЙ ДАСТУРИ

№	№	Объектларнинг номи ва joyлашган манзили	Қурилиш бошланиши ва тугалланиши йили	Лойҳавий куват, тегишли ўлчов бирликлари да (КМ)	Пузрат шартномаси тузилиш вақтига қурилишнинг умумий хиймати	Қурилишнинг 2022-йил 1-январь ҳолатига қолдиқ қиймати	Шу жумладан			Таксимланган маҳаллий лимит ҳисобидан таъмирланган	2022-йилги жами капитал қуйилмалар (Минг Сўм)	Шу жумладан:			Пузратчи қурилиш ташкилотлари		
							Турроқ йўлни тош йўлга ўтказиш		Асфальт йўли таъмирлаш			Қурилиш монтаж ишларининг умумий қиймати	Бошқа харажатлар (Минг Сўм)	Қурилишнинг умумий қиймати		Қурилишнинг умумий қиймати	Қурилишнинг умумий қиймати
							КМ	Минг Сўм									
							7	8	9			10	11	12		13	14
1	1	1. Туман маркази кўчалари	2022-йил	4,4			0,4	59646,225	0,0		62785,500	59646,225	3139,275		Автомобил		
2	2	2. Қишлоқ аҳоли пункти кўчалари	2022-йил	0,4			0,4	59646,225	0,0		62785,500	59646,225	3139,275		Автомобил		
3	3	3. Шаҳар тилидаги посёлка кўчалари	2022-йил	1,0			1,0	149975,487	0,0		157869,250	149975,487	7893,463		Автомобил		
4	4	4. Қишлоқ аҳоли пункти кўчалари	2022-йил	1,0			1,0	149975,488	0,0		157869,250	149975,488	7893,462		Автомобил		
5	5	5. Шаҳар тилидаги посёлка кўчалари	2022-йил	2,0			2,0	299951,575	0,0		315738,500	299951,575	15786,925		Автомобил		
6	6	6. Шаҳар тилидаги посёлка кўчалари	2022-йил	0,6			0,6	87875,000	0,0		92500,000	87875,000	4625,000		Автомобил		
7	7	7. Шаҳар тилидаги посёлка кўчалари	2022-йил	0,4			0,4	54996,925	0,0		57891,500	54996,925	2894,575		Автомобил		
8	8	8. Шаҳар тилидаги посёлка кўчалари	2022-йил	0,5			0,5	74286,200	0,0		78196,000	74286,200	3909,800		Автомобил		
9	9	9. Шаҳар тилидаги посёлка кўчалари	2022-йил	1,5			1,5	217158,125	0,00		228887,500	217158,125	11429,375		Автомобил		
10	10	10. Шаҳар тилидаги посёлка кўчалари	2022-йил	3,9			3,9	576755,925	0,00		607111,500	576755,925	30555,575		Автомобил		

Ш. Турсунов

Б. Илҳомов

Ш. Турсунов

Б. Илҳомов

Ш. Турсунов

Б. Илҳомов

Нишон тумани бўйича 2022-йилда маҳаллий хокимлик балансидаги туман маркази ичун автомобил йўлларини жорий таъмирлаш бўйича дастлабки



# Ob'ektning joriy tamirlash va foydalanishga topshirish haqida PUDRAT SHARTNOMASI

17 10 2022 yil

№ 75

Yangi nishon shahri.

**Nishon tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan (Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan) Nizom asosida ish ko'ruvchi korxonada direktori **Sh.Tursunov** bir tomondan va **Chp Pardozchi muxandis MCHJ** nomidan (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan) Nizom asosida ish ko'ruvchi korxonada direktori **A.Erkayev** ikkinchi tomondan **Nishon tumani Jalajin MFY Farobiy kuchasini joriy ta'mirlash** (smeta xujjatlarida kuzda tutilgan ishlar xajmi miqdorida) doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

## I. TARIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ta'mirlash ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha (ish olib borish talab etadigan hollarda) "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchiga" berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaqa muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar - "Pudratchi" tomonidan qurilish-ta'mirlash maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

## II. SHARTNOMA MAVZUSI.

1. "Pudratchi" **Chp Pardozchi muxandis MCHJ** mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Nishon tumani Jalajin MFY Farobiy kuchasini joriy ta'mirlash** (smeta xujjatlarida kuzda tutilgan ishlar xajmi miqdorida) loyiha-smeta xujjatlari asosida joriy ta'mirlash bo'yicha ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi" ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Ob'ektning" umumiy qiymati, loyiha-smeta xujjatlarida hisoblab chiqilgan, davlat (yoki xususiy) ekspertizasi tomonidan belgilab berilgan (tanlov va tender savdolari natijasida aniqlangan) "Manzilli dastur" asosida tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda: **139 000 000 (Bir yuz uttiz tuqqiz milliob)** summi tashkil etadi.

2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- qurilish-ta'mirlash qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

- ishlar hajmi "Buyurtmachi" tomonidan o'zgartirilganda;

- ob'ektning qurilish-ta'mirlash ishlari "Buyurtmachi" tashshabusi (talabi) bilan bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

3. Mazkur shartnomaga ko'ra qurilish-ta'mirlash muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.